

## “OR-NOMUS” KONSEPTINING NUTQIY AKT HARAKATLARI DOIRASIDA TAHLILI.

**Yuldosheva Guli Xayrulla qizi**

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “O‘zbek tili va  
adabiyoti” kafedrasida o‘qituvchisi*

[yuldoshevaguli7@gmail.com](mailto:yuldoshevaguli7@gmail.com)

+998977194224

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek tilida keng qo‘llaniladigan “or-nomus” konsepti nutqiy akt nazariyasi doirasida tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi – “or-nomus” tushunchasining lingvopragmatik mohiyatini ochish, uning ijtimoiy-madaniy mazmuni va kommunikativ funksiyalarini aniqlashdan iborat. Shuningdek, “or-nomus” so‘zining o‘zbek xalqining axloqiy qadriyatlari, milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy munosabatlardagi o‘rni yoritilgan. Maqola natijalari “or-nomus” konseptining nafaqat semantik, balki pragmatik, ijtimoiy va madaniy jihatdan ham murakkab tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv milliy mentalitetni aks ettiruvchi konseptlarning nutqiy tahlilini chuqurlashtirish hamda o‘zbek tilining madaniy-semantik imkoniyatlarini yanada kengroq o‘rganishga zamin yaratadi.

**Kalit so‘zlar:** or-nomus, konsept, nutqiy akt, lingvopragmatika, lokutsiya, illokutsiya, perllokutsiya.

**Annotation:** This article analyzes the concept of “or-nomus”, which is widely used in the Uzbek language, within the framework of speech act theory. The purpose of the study is to reveal the linguopragmatic essence of the concept “or-nomus” and to determine its socio-cultural meaning and communicative functions. The article also highlights the role of the term “or-nomus” in reflecting the moral values of the Uzbek people, their national identity, and social relations. The findings demonstrate that the concept “or-nomus” possesses a complex structure not only from a semantic perspective but also from pragmatic, social, and cultural aspects. This approach contributes to a deeper speech analysis of concepts that reflect the national mentality and creates a foundation for a broader exploration of the cultural and semantic potential of the Uzbek language.

**Keywords:** or-nomus, concept, speech act, linguopragmatics, locution, illocution, perlocution.

**Аннотация.** В данной статье анализируется концепт «ор-номус», широко употребляемый в узбекском языке, в рамках теории речевых актов. Цель исследования — раскрыть лингвопрагматическую сущность понятия «ор-номус», определить его социокультурное содержание и коммуникативные функции. В статье также освещается роль слова «ор-номус» в отражении нравственных ценностей узбекского народа, национальной идентичности и социальных отношений. Результаты исследования показывают, что концепт «ор-номус» обладает сложной структурой не только с семантической, но и с

*прагматической, социальной и культурной точек зрения. Данный подход способствует более глубокому речевому анализу концептов, отражающих национальный менталитет, и создает основу для дальнейшего изучения культурно-семантического потенциала узбекского языка.*

**Ключевые слова:** *ор-номус, концепт, речевой акт, лингвопрагматика, локуция, иллокуция, перлокуция.*

Nutqiy akt nazariyasi – insonga so’zlarning ta’siri, so’zlar yoxud gaplar natijasida inson harakatga tushishi haqidagi nazariya hisoblanadi. Shuningdek, nutqiy akt shunchaki til vositalarini qo’llash yoxud nutqdan foydalanish ortidan maqsadga erishish emas, balki turli noverbal vositalardan ham foydalangan holatda nutqning ta’sirchanligiga kuchliroq ta’sir o’tkazish hisoblanadi. Masalan, “bor” yoki “ket” kabi so’zlarni shunchaki tallaffuz qilibgina qolmasdan qo’l ishoralari yoki turli mimikalar bilan birga aytganimizda tinglovchiga ta’siri kuchi ham shunchalik ortadi.

Zamonaviy lingvistikada nutqiy akt nazariyasi tilning faqat strukturaviy jihatlarini emas, balki uning ijtimoiy, psixologik va pragmatik funksiyalarini ochib berishga xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham bu fikrdan kelib chiqqan holda pragmatik tahlil doirasida aytishimiz mumkinki nutqiy akt harakatlarida turli mavzularni tahlil ostiga olsak bo’ladi. Bu borada bizga konsept nazariyasi asosiy vosita bo’lib xizmat qiladi.

“Konsept” atamasi kognitiv tilshunoslikdagi eng murakkab g’oyalardan biridir. So’nggi yillarda bu atama keng talqin qilinmoqda va ijtimoiy-gumanitar fanlarda aniq ta’rifiga hali olimlar to’xtalganicha yo’q. U ingliz tilida ma’lum darajada pafos bilan, ba’zan esa kognitiv metafora orqali tushuntiriladi: “a multidimensional cluster of sense – ko’p o’lchovli hislar to’plami”, “a semantic slice of life - hayotning semantik qismi”, “a gene of culture – madaniyat geni” va h.k. Bugungi kunda “kontsepsiya” atamasi tilshunoslikning turli sohalarida keng qo’llaniladi. U kognitiv, semantik va madaniy tilshunoslikning shartli tizimiga kirib ulgurdi [7].

Konsept – bu dunyodagi narsalarning haqiqiy yoki mumkin bo’lgan holati to’g’risidagi ma’lumotlarni o’z ichiga olgan ruhiy olamdagi madaniyat birliklaridir (insonning real obyektlar haqida o’ylashi, bilishi, taxmin qilishi mumkin bo’lgan barcha narsalar). Dunyoning konseptual tasvirining elementlari sifatida konsept olamlarning butun paradigmasini (hayot va kundalik hayotni idrok etishdan tortib, konseptda aks ettirilgan ilmiy talqingacha) birlashtiradi. Shuning uchun konsepsiya subyektiv ma’nolarni va umumiy qabul qilingan an’anaviy ma’nolarni (kognitiv obyekt yoki hodisaning potensial mazmunini) o’z ichiga olgan semantik birlik bo’lishi mumkin.

Konsept olamning lisoniy manzarasining birligi sifatida alohida til shaxsi uchun ham, lingvistik va madaniy hamjamiyat uchun ham katta ahamiyatga ega, chunki u o’zining maydon tuzilishiga ega bo’lgan ideal ifodasida inson tajribasining verballashgan eng kichik birligidir. Konsept, bilimlarni qayta ishlash, saqlash va uzatishning asosiy birligiga hamda o’z chegaralari va o’ziga xos funksiyalariga egaligi, ijtimoiy va assotsiativ maydoni, pragmatikasi, madaniyatning asosiy bo’g’ini bilan belgilanishi asosida ko’p

funksiyalidir. Tilshunos L.Raupova konseptni madaniyatning o'ziga xos belgisi sifatida fasona, urf-odat, marosim, madaniy ma'lumotlarni til birliklarida taqdim etish usullaridan biri sifatida kogniviy-madaniy makondagi vositachi deb tariflaydi [2].

Lekin shuni ham aytish mumkinki, konsept na madaniyatga, na tilga tegishlidir. Bunday xulosaga sabab ongimiz madaniyat haqida ma'lumot oladi va ongimizda qayta ishlanadi va tizimlashtiriladi. Shuni ham yodda tutish zarurki til vositalarini tanlashda ongimiz ham faol ishtirok etadi. Demak, konsept madaniyat, ong va tilni o'zida mujassamlashtirgan maxsus birlikdir, chunki konseptning o'zi madaniyat bilan belgilanadigan va tilda aniqlangan bilimlarga tegishlidir.

Murakkab birlik sifatida konsept ko'pincha tushuncha (inglizcha – notion) va ma'no bilan bog'lanadi yoki aralashtiriladi. Konsept, tushuncha va ma'no o'rtasidagi muvozanat lingvistik konseptologiyaning bahsli masalasiga aylanib ulgurdi. Ilmiy adabiyotlarda bu sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlar haqida turlicha qarashlar mavjud. O'rta asr sxolastikasida P.Abelard tomonidan qo'llanilgan "konseptsiya" atamasining ma'nosi tufayli konsept va tushuncha ko'pincha tenglashtiriladi, u tushunchalar majmui sifatida ta'riflagan. Bundan tashqari, konseptning ta'riflari psixik leksikaning operativ birligi, voqelikning qandaydir ob'ekti to'g'risidagi ma'lumotlar yoki individual hissiy xususiyatlarning mavhum tushunchasi sifatida konsept va tushunchaning bir xil xususiyatlarga ega bo'lganligini aniqlashga olib keladi.

Konsept tushunchaga qaraganda boyroq, semantik jihatdan chuqurroq va inson ruhiy dunyosi, madaniyati va tarixiga yaqindir. Konsept kategoriyasi qamrovida turli verbal vositalarning turli shakllari namoyon bo'ladi va bu hol lingvokulteremalar deb ataladi. Biz uchun tahlil talab bo'lgan "or-nomus" konsepti doirasidagi lingvokulteremalar va yuqorida tilga olingan nutqiy akt harakatlari quyidagicha tahlilga tortiladi.

"Or-nomus" konseptiga oid til birliklari J.Ostinning nutqiy aktlar nazariyasi asosida tahlil qilinganda, ular lokutsion, illokutsion va perlokutsion aktlar doirasida turlicha funksional ma'nolarda qo'llanilishi aniqlandi. Bunda lokutsion akt darajasida mazkur birliklar oddiy xabar yoki tasviriy ifoda sifatida voqelansa, illokutsion akt doirasida ular buyruq, undash, ogohlantirish yoki taqiqlash kabi kommunikativ niyatlarni bildiradi. Perlokutsion aktda esa "or-nomus" konseptli birliklar tinglovchi yoki o'quvchida ma'lum bir ruhiy-ta'sir uyg'otib, uni ijtimoiy axloqiy qadriyatlarga rioya qilishga undash vazifasini bajaradi.[7]

"Or-nomus" masalalariga oid lingvokulteremalar qamrovida xalq og'zaki ijodi namoyondasi hisoblangan maqollar keng o'rin tutadi. Masalan, "Benomusga ne nomus", "Jonimgni fido qilsang ham, Nomusingni fido qilma", "Yigitni or o'ldirar, Tuyani – sarbon" va shu kabilardir. Bunday maqollarning semantik-pragmatik tahlili esa quyidagicha namoyon bo'ladi. Ya'ni, "Boylik ketsa ketsin, Or-nomus ketmasin" maqoli nutqiy akt nazariyasining lokutsion harakatida shunchaki tovushlar, so'zlar, so'z birikmasi yoxud gaplarning yig'indisi sifatida nutqda tayyor holda qo'llanilgan birlik hisoblanadi. Illokutsion harakat doirasida inson mol-dunyosidan ayrilsa ham nomusidan ayrilmasligi, davlat qayta topiladigan, ammo or-nomus topilmaydigan tushuncha ekanligi

haqida chuqur axborot, xabar berish ma'nosi bor. Perlokutsion harakat doirasida esa bevosita mazkur birikmalar orqali inson ongiga ta'sir o'tkazish, haqiqatdan shaxslarni mazkur masalada to'la harakatga keltirish ifodalari tushuniladi.

Xulosa qilib aytganda, "Or-nomus" konsepti o'zbek xalqining milliy tafakkuri, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlar tizimida markaziy o'rin tutuvchi ma'naviy tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. Nutqiy aktlar nazariyasi nuqtai nazaridan "or-nomus" konseptining tahlili shuni ko'rsatadiki, bu tushuncha faqat axloqiy-me'yoriy mazmunga ega emas, balki kommunikativ jarayonda maqsadli pragmatik yukni ham o'z ichiga oladi.

Mazkur konsept ishtirokidagi nutqiy aktlar — buyruq, ogohlantirish, tanbeh, maqtov, kinoya va iltimos shakllarida ifodalanib, so'zlovchining ijtimoiy maqomi, madaniyati hamda axloqiy pozitsiyasini bildiradi. Shuningdek, "or-nomus" konseptining til birliklarida qo'llanishi o'zbek xalqining kollektiv ongida sha'n, g'urur, vijdon va sadoqat kabi qadriyatlarning ustuvorligini tasdiqlaydi.

"Or-nomus" konseptini nutqiy aktlar doirasida tahlil qilish uni faqat semantik yoki madaniy birlik sifatida emas, balki ijtimoiy-pragmatik fenomen sifatida talqin etish imkonini beradi. Bu yondashuv o'zbek madaniy diskursida konseptual tahlilning yangi metodologik yo'nalishlarini belgilab beradi va til, tafakkur hamda jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. — Б.78-79.
2. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матнинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. — Тошкент, 2011. — Б. 94.
3. Ҳақимов. М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. — Тошкент: Akademnashr, 2013. —Б.6.
4. Austin J.L. How To Do Things With Words. — Oxford: Oxford Univ. Press., 1962; 2 nd ed., 1973.- 167 p.;
5. Austin J.L. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике: Теория речевых актов. — М.: Прогресс, 1986. — С. 22-130.
6. X.Narxodjayeva. Rasmiy muloqot matning lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi. Monografiya. "Ilm-fan-ma'naviyat" nashriyoti. —Qarshi, 2024.
7. X.Narxodjayeva. Nutqiy muloqot kommunikativ aloqa turi sifatida. Zamonaviy tilshunoslikda madaniyatlararo muloqot. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. — Qarshi, 2024. —B. 37-41.